Qishloq xoʻjaligi va veterinariya sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish boʻyicha tarmoq kengashi

# Qishloq xoʻjaligi va veterinariya sohalari

## TARMOQ MALAKA RAMKASI



TOSHKENT - 2026

“Qishloq xoʻjaligi va veterinariya sohalari” tarmoq malaka ramkasi 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish boʻyicha respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasi shakli” va Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrugʻi bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga asosan Qishloq xoʻjaligi va veterinariya sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish boʻyicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

© Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti,
Qishloq xoʻjaligi va veterinariya sohalarida
kasbiy malakalarni rivojlantirish
boʻyicha tarmoq kengashi, 2026.

## TARMOQ MALAKA RAMKASI

Reyestr raqami:

UZ-TMR-2026-T1.0-010

### 1. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar

Ushbu Qishloq xoʻjaligi va veterinariya sohalari tarmoq malaka ramkasi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-345-son qarorida kasbiy malakalarni rivojlantirish boʻyicha tarmoq kengashlarining asosiy vazifalari sifatida belgilangan topshiriqlar ijrosini taʼminlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Mazkur TMR Oʻzbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi va Mashgʻulotlar milliy klassifikatoriga muvofiq ishlab chiqilgan boʻlib, qishloq xoʻjaligi, veterinariya va oziq-ovqat sohalari boʻyicha sakkizta malaka darajasini tarmoqda qoʻllaniladigan bilim, koʻnikma, masʼuliyat va mustaqillik xususiyatiga qarab tasniflaydi.

TMR qishloq xoʻjaligi, veterinariya va oziq-ovqat sohalarida malaka darajalarining yagona shkalasini belgilaydi, malakalarning qiyoslanishini taʼminlaydi, kasbiy standartlar va mutaxassislar malakasini muvofiqligini tasdiqlash hamda ularning malakasini tan olish tizimi uchun asos hisoblanadi.

Qishloq xoʻjaligi va veterinariya sohalarida TMRning asosiy maqsadi qishloq xoʻjaligi, veterinariya va oziq-ovqat sohalarida malaka darajalarining tizimlashtirilgan tavsifini, iqtisodiyotning istiqbollari va ustuvor yoʻnalishlarini hamda tarmoqning strategik rivojlanishini hisobga olgan holda Milliy malaka ramkasi asosida mavjud malakalarga qoʻyilgan talablarni shakllantirishdan, tarmoqlararo kompetensiyalar va turdosh mashgʻulotlar turlarini koʻrsatgan holda kasblar va lavozimlarni malaka darajalari boʻyicha xaritalashdan iborat.

TMRning vazifasi keyinchalik kasbiy standartlarni ishlab chiqish uchun qishloq xoʻjaligi, veterinariya va oziq-ovqat sohalaridagi joriy va istiqbolli texnologiyalarni hisobga olgan holda ishchilarning funksional xatti-harakatlari, koʻnikmalari va bilimlariga qoʻyiladigan talablarni aniqlashdan iborat.

Ushbu Qishloq xoʻjaligi va veterinariya sohalari tarmoq malaka ramkasida quyidagi asosiy tushunchalar qoʻllaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasida mehnat vazifalarni bajarish uchun zarur boʻlgan egallangan va oʻzlashtirilgan maʼlumotlar;

guruh – iqtisodiy faoliyatning keng sohasini bildiradi. Har bir guruh faoliyatning yirik segmentlarini birlashtiradi;

informal ta’lim – maqsadli yoki rejalashtirilgan, biroq institutsionallashtirilmagan ta’lim bo‘lib, u oilada, ish joyida va kundalik hayotdagi o‘quv faoliyatlarini o‘z ichiga oladi;

kasb – ko‘nikma va bilimlarni talab qiluvchi muayyan mehnat vazifalari va funksiyalarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat turi;

kasbiy standart – norasmiy va informal ta’limni inobatga olgan holda, muayyan kasbiy faoliyat sohasida bilim, ko‘nikma, mas’uliyat va mustaqillik, malaka darajasi, mehnat mazmuni, sifati va sharoitlariga qo‘yiladigan talablarni belgilovchi rasmiy hujjat;

kasbiy faoliyat sohasi – ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda, ishlab chiqarishda namoyon bo‘ladigan kasbiy faoliyat obyektlarining majmuasi;

kasbiy faoliyat turi – xususiyati, natijalari va mehnat sharoitlari bir-biriga yaqin bo‘lgan mehnat funksiyalarining majmuasi. Kasbiy faoliyat turi kasbiy standartlarni ishlab chiqishda qo‘llanilib, aniq mehnat funksiyalari hamda malaka talablarini tavsiflash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi;

kichik sinf – sinf ichidagi faoliyatning aniq turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

kompetensiya – bilim, malaka va shaxsiy sifatlarini ma’lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo‘llay olish;

ko‘nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va (yoki) aqliy jihatdan bajarish;

malaka – tegishli hujjat bilan tasdiqlanuvchi bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar majmuasi bo‘lib, shaxsning muayyan kasbiy faoliyat turini bajarishga tayyorligini aks ettiradi;

malaka darajasi – xodimlarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarining murakkablik, standart bo‘lmagan mehnat harakatlari va mas’uliyat parametrlariga muvofiqlik darajasi;

mas’uliyat va mustaqillik – xodimning umumiy kompetensiyasini belgilab quyidagilar bilan ifodalanadi:

rahbarlik ostidagi faoliyat;

mustaqil ijro intizomi;

rahbarlik faoliyati;

Mashg‘ulotlar milliy klassifikatori – O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llaniladigan mashg‘ulotlar (kasblar/lavozimlar) nomlarini aks ettiruvchi va ularni bajariladigan ishning turiga muvofiq malaka darajasi va ixtisoslashuvi bo‘yicha tasniflovchi mashg‘ulotlar (kasblar/lavozimlar) ning tizimlashtirilgan ro‘yxati;

Milliy malaka tizimi – kasbiy malakalar bo‘yicha mehnat bozori talabi hamda ta’lim tizimi (jumladan, norasmiy va informal ta’lim) taklifini muvofiqlashtiruvchi hamda tartibga soluvchi huquqiy va institutsional vositalar va mexanizmlar majmui;

Milliy malaka ramkasi – kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan barcha malakalarni tavsiflovchi, mamlakatda kasbiy malakalarni tasniflash va tan olishning strategik

muhim, konseptual vositasi hisoblanuvchi, malaka darajalari yigʻindisidan iborat tashkiliy tuzilma;

norasmiy taʼlim – tashkillashtirilgan, maqsadli va rejalashtirilgan taʼlim boʻlib, shaxs yoki taʼlim xizmatlarini koʻrsatuvchi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi va rasmiy taʼlimni toʻldiruvchi yoki uning alternativasi boʻlishi mumkin;

rasmiy taʼlim – davlat taʼlim muassasalari va davlat tomonidan tan olingan nodavlat taʼlim muassasalarida amalga oshiriladigan, tashkillashtirilgan, maqsadli va rejalashtirilgan taʼlim jarayoni;

sinf – guruh ichida iqtisodiy faoliyatning oʻrtacha darajada (tor doirada) aniqlangan turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

Tarmoq malaka ramkasi – Milliy malaka ramkasi, mashgʻulotlar, lavozimlar va kasblar klassifikatorlari asosida ishlab chiqiladigan hamda tegishli sohadagi kasblarga qoʻyiladigan malaka talablarini bajariladigan ishning murakkabligi, tarmoqda qoʻllaniladigan bilim, koʻnikma va kompetensiyalar xususiyatiga qarab darajalarga ajratuvchi tasniflagich.

Qishloq xoʻjaligi, veterinariya va chorvachilik hamda oziq-ovqat sohalari boʻyicha atama va tushunchalar:

Qishloq xoʻjaligi:

gidroponika — koʻchatxonada oʻsimlikni tuproqsiz, sunʼiy muhitda oʻstirish;

koʻp yillik ekinlar — bir necha yil davomida barqaror hosil olinadigan oʻsimliklar;

koʻchatxona — har xil oʻsimliklarning hosildorligini oshirish va mavsumdan oldin yetishtirish uchun yumshoq moʻtadil sharoitlarni yaratish maqsadida qurilgan, ichida shartli iqlim tizimi boʻlgan hudud;

mavsumiy ekinlar — aniq bir mavsumda yetishtiriladigan, sezilarli darajada bir qator iqlimiy sharoitlarga muhtoj oʻsimliklar;

qishloq xoʻjaligi mavsumi — har bir oʻsimlikning oʻsishi uchun optimal vaqtni belgilash, yerning hosildorligi va iqlimini hisobga olishga qaratilgan amaliy usul;

seleksiya — koʻp yillik ekinlarning hosildorligi, koʻchirilishi va ushbu ekinlarning yuqori sifatini taʼminlash uchun mutaxassislarning ilmiy ishi;

sifatli xizmat koʻrsatish — agroindustrial faoliyat va qishloq xoʻjaligida xizmatlar sohasining turli yoʻnalishlarida amalga oshiriladigan yordamchi yoki texnik xizmatlar;

texnika taʼmiri — mexanizatsiya va maxsus qishloq xoʻjalik texnikalarini taʼmirlash va ularning toʻgʻri ishlashini taʼminlash.

Veterinariya va chorvachilik:

anesteziya — veterinariyada hayvonlarga amaliyotlar olib borishda ularni ogʻriqdan himoya qilish usuli;

baliq ovlash — baliqlarni turli usullarda ovlash, ularni koʻpaytirish va suvda yashash jarayonlarini nazorat qilish;

epidemiologiya — hayvonlar orasida kasalliklarning tarqalishi, profilaktika qilinishi, diagnostika va davolash usullarini oʻrganadigan fan;

feromon tutqich — hasharotlarni oʻzaro muloqoti uchun ularning maxsus bezlaridan ajratadigan murakkab molekular tuzilishga ega boʻlgan organik kimyoviy moddalar aralashmasi;

ovchilik — yovvoyi hayvonlarni ovlash, ularni tutish;

parazitologiya — hayvonlar va ularning atrof muhitidagi parazitlarni oʻrganish fani;

profilaktika — hayvonlarda kasalliklarning oldini olish, sanitariya va gigiyena tadbirlari;

veterinariya — hayvonlarning sogʻlomligi, tashxis qilish va davolash bilan shugʻullanuvchi fan va amaliyot;

veterinar maslahatlari — hayvonlarning sogʻlomligi va davolash usullarini professional ravishda koʻrsatish;

sanitariya — hayvonlarning tozaligi va muhitiga xatarlardan saqlash boʻyicha tadbirlar;

vaksinatsiya — veterinariyada hayvonlarni infeksiya kasalliklaridan himoya qilish maqsadida emlash jarayoni;

chorva hayvonlari — aholini oziq-ovqat mahsulotlari (sut, qatiq, goʻsht, yogʻ, tuxum va boshqa), yengil sanoatni xom ashyo (jun, teri, moʻyna va hokozo), qishloq xoʻjaligini organik oʻgʻit (goʻng) bilan taʼminlovchi hayvonlar;

chorva savdosi — chorva hayvonlarining savdosi va ularni parvarishlash, hosildorligini oshirish bilan shugʻullanish.

Oziq-ovqat:

fermentatsiya — oziq-ovqat mahsulotlarini oʻzgartish va mustahkamlash jarayoni;

hayvonlar ozuqasi — kerakli ozuqa elementlarga ega boʻlgan, oqsil, mineral moddalar boʻyicha balanslangan turli ozuqa aralashmalari;

keng turdagi oziq-ovqat mahsulotlari — turli xil ovqatlarni ishlab chiqarish jarayonlarining natijasi;

konservalash — ovqatlarning oʻzini saqlash maqsadida qoʻllaniladigan yoki termal ishlov berish;

moylar ishlab chiqarish — har xil turdagi moylarni tayyorlash uchun moy va yogʻlarni yigʻish;

non va non mahsulotlari — maʼlum shaklga ega, undan tayyorlanuvchi, namlik miqdori 19 foizdan ortiq boʻlmagan mahsulot;

ozuqa qoʻshilmalar — hayvonlarga zarur boʻlgan vitaminlar va minerallar bilan boyitilgan mahsulotlar;

sabzavotlarni konservalash — sabzavotlarning solishtirilishi, yuqori sifatli konservati;

sut mahsulotlari — sutni qayta ishlash orqali ishlab chiqarilgan mahsulotlar;

sutni pasterizatsiya qilish — sutdagi mikroorganizmlarni yoʻq qilish uchun isitish jarayoni;

oʻsimlik yogʻlari — soya, joʻxori, kunjut kabi oʻsimliklardan olingan yogʻlar;

xamir tayyorlash — unni suv, yogʻ, tuxum yoki sutga qorishdan hosil boʻladigan yumshoq choʻziluvchan qorishma tayyorlash jarayoni.

TMR turli foydalanuvchilar guruhlari (ish beruvchilar, taʼlim tashkilotlari, fuqarolar, ishchi-xodimlar) uchun moʻljallangan boʻlib, quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

1) kasbiy standartlar va taʼlim standartlarini ishlab chiqishda ishchi-xodimlar hamda bitiruvchilarning malakasiga qoʻyiladigan talablarni yagona nuqtai nazardan tavsiflash;

2) taʼlim turi va taʼlim olish shaklidan qatʼiy nazar (norasmiy va informal orttirilgan koʻnikma va malakalar) barcha bitiruvchilar va ishchi xodimlar malakasini baholash uchun zarur uslubiy tavsiyalar va tartib-qoidalarni ishlab chiqish;

3) muayyan malaka darajasiga erishish va kasbiy oʻsishga olib keladigan turli xil taʼlim yoʻnalishlarini rejalashtirish.

TMR, Milliy malaka tizimining tarkibiy elementi sifatida, mutaxassisning malakasiga qoʻyiladigan talablarni, bajarilayotgan mehnat vazifalarining murakkabligi hamda sohasining ijtimoiy-mehnat doirasida qoʻllaniladigan bilim va koʻnikmalarining xususiyatlariga qarab darajalarga ajratadi. Bu tasnif mutaxassisning malakasini baholash va rivojlantirish uchun asos boʻlib xizmat qiladi.

TMR qishloq xoʻjaligi, veterinariya va oziq-ovqat sohalaridagi ishchi-xodimlarning kasbiy-ixtisoslashtirilgan malakalarining tavsifini oʻz ichiga oladi. Kasblar boʻyicha guruhlangan asosiy malaka darajalari kelajakda kasbiy standartlarni ishlab chiqishda va malakalarni baholashda qoʻllaniladi.

TMR kasbiy standartlarni (keyingi oʻrinlarda – KS) ishlab chiqish uchun malaka darajalarining yagona shkalasini belgilash, malakalarning oʻzaro taqqoslanishi taʼminlash, mutaxassislarning malakaga muvofiqligini baholash hamda malakani tan olish tizimi uchun asos boʻlib xizmat qiladi.

TMR har bir malaka darajasi uchun kasbiy faoliyatning umumiy xususiyatlari tavsifidan iborat:

1) bilimlar (faoliyatning ilmiy sigʻimi) – bilimlarga qoʻyiladigan talablarni belgilovchi, kasbiy faoliyatning quyidagi xususiyatlariga bogʻliq boʻlgan murakkab koʻrsatkich:

qoʻllaniladigan maʼlumotning hajmi va murakkabligi;

innovatsion bilimlar;

ularning mavhumlik darajasi (nazariy va amaliy bilim hamda koʻnikmalarning nisbati);

2) koʻnikmalar – koʻnikmalarga qoʻyiladigan talablarni belgilovchi, kasbiy faoliyatning quyidagi xususiyatlariga bogʻliq boʻlgan murakkab koʻrsatkich:

mehnat vazifalarini yechish usullarining xilma-xilligi (variativligi), ushbu usullarni tanlash yoki ishlab chiqish zarurati;

mehnat jarayonidagi noaniqlik darajasi va uning rivojlanishini oldindan aytib boʻlmasligi. Bu koʻrsatkich murakkab hisoblanib, uning namoyon boʻlish darajasi

(bir malaka darajasidan boshqasiga oʻtish) tarkibiy koʻrsatkichlardan birining (istalganining) oʻzgarishi bilan ham, ikkalasining oʻzgarishi bilan ham bogʻliq boʻlishi mumkin;

3) masʼuliyat va mustaqillik – ushbu koʻrsatkich xodimning vakolatlari doirasi va masʼuliyatini belgilab, quyidagi uch asosiy darajada namoyon boʻladi:

rahbarlik ostida faoliyat;

mustaqil faoliyati;

boshqalarga rahbarlik qilish.

Masʼuliyat va mustaqillik chegarasi – tashkilot uchun ehtimoliy xatoning qiymati, uning ijtimoiy, ekologik, iqtisodiy va shunga oʻxshash oqibatlari bilan bogʻliq. Shuningdek, bu rahbarning asosiy vazifalarini (maqsad belgilash, tashkillashtirish, nazorat qilish, ijrochilarni (xodimlar va ishchilarni) ragʻbatlantirish) kasbiy faoliyatda samarali amalga oshirish darajasi bilan ham bevosita aloqador.

Mazkur tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqishga asos boʻlgan qonunlar, qarorlar, normativ hujjatlar:

Oʻzbekiston Respublikasining 2023-yil 21-avgustdagi “Veterinariya toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuniga oʻzgartirishlar kiritish haqida”gi OʻRQ-864-son Qonuni;

Oʻzbekiston Respublikasining 2023-yil 23-oktabrdagi “Yer toʻgʻrisidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi OʻRQ-871-son Qonuni;

Oʻzbekiston Respublikasining 2023-yil 9-noyabrdagi “Oʻsimliklarni himoya qilish toʻgʻrisida”gi OʻRQ-877-son Qonuni;

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi “Pillachilik sohasida kasanachilikni qoʻllab-quvvatlash hamda pilla yetishtirish uchun ozuqa bazasini yanada kengaytirishning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-85-son Farmoni;

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-dekabrdagi “Qishloq xoʻjaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-205-son Farmoni;

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi “Kasbiy taʼlimda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro taʼlim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-158-son Farmoni;

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-apreldagi “2023-yilda Qishloq xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qoʻllab-quvvatlashning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-113-son Qarori;

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-345-son Qarori;

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi “Oʻzbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash toʻgʻrisida”gi 369-son qarori.

Asosiy qisqartmalar:

MMR – Milliy malakalar ramkasi;

MMK – Mashgʻulotlarning milliy klassifikatori;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

## 2. Tarmoq malaka ramkasining pasporti

Qishloq xoʻjaligi va veterinariya sohasi, qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va saqlash, chorvachilik va oʻsimlikchilikni rivojlantirish, yer resurslaridan samarali va barqaror foydalanish, agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash, shuningdek, ekinlar va hayvonlarning sogʻligʻini saqlashga doir tadbirlarni oʻz ichiga oladi. Ushbu soha tuproq unumdorligini oshirish, sugʻorish tizimlarini yaxshilash, agroekologik muvozanatni saqlash kabi yoʻnalishlarda ham faoliyat yuritadi.

Veterinariya yoʻnalishi chorva hayvonlari, parrandalar, baliqlar va boshqa xoʻjalik hayvonlarining kasalliklarining oldini olish, ularni davolash, sogʻlomlashtirish, hayvonlardan insonlarga yuqadigan kasalliklar (zooantroponozlar)ni aniqlash va nazorat qilish, hayvonlar uchun dori vositalarini ishlab chiqarish va qoʻllash, shuningdek, chorvachilik mahsulotlarining gigiyenasi va sifati ustidan nazoratni amalga oshirishni qamrab oladi.

Bundan tashqari, qishloq xoʻjaligi va veterinariya sohasi oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini taʼminlash, ularni yetkazib berish zanjiri boʻyicha nazorat qilish, qishloq joylarda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish, shuningdek, iqlim oʻzgarishi sharoitida barqaror qishloq xoʻjaligini rivojlantirish boʻyicha chora-tadbirlarni ham oʻz ichiga oladi.

Qishloq xoʻjaligi va veterinariya sohasidagi tarmoq malaka ramkasi quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari uchun ishlab chiqilgan:

Seksiya nomi:

A – seksiya Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi;

C – seksiya Ishlab chiqaradigan sanoat;

N – seksiya Professional, ilmiy va texnik faoliyat.

Oʻzbekiston Respublikasida Qishloq xoʻjaligi va veterinariya sohasidagi TMR Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2.1)ga muvofiq quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi:

| T/r | Seksiya | Bo‘lim | Guruh | Sinf | Kichik sinf |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | A – seksiya Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 01 Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish | 01.1 Mavsumiy ekinlar yetishtirish | 01.11 Donli ekinlar (sholidan tashqari), dukkaklilar va moyli ekinlar urug‘ini yetishtirish | 01.11.1 Donli ekinlar (sholidan tashqari) yetishtirish |
| | | | | | 01.11.2 Dukkakli ekinlar yetishtirish |
| | | | | | 01.11.3 Moyli ekinlar va ularning urug‘ini yetishtirish |
| | | | | 01.12 Sholi yetishtirish | 01.12.0 Sholi yetishtirish |
| | | | | 01.13 Sabzavotlar va poliz ekinlari, ildizmevali ekinlar yetishtirish | 01.13.1 Sabzavotlar yetishtirish |
| | | | | | 01.13.2 Poliz ekinlari yetishtirish |
| | | | | | 01.13.3 Kraxmal va inulinga boy ildizmevali ekinlar va ularning urug‘larini yetishtirish |
| | | | | | 01.13.9 Boshqa ildizmevali ekinlar va ularning urug‘larini, qo‘ziqorinlar va tryufellarni yetishtirish |
| | | | | 01.14 Shakarqamish yetishtirish | 01.14.0 Shakarqamish yetishtirish |
| | | | | 01.15 Tamaki yetishtirish | 01.15.0 Tamaki yetishtirish |
| | | | | 01.16 Tolali yigiriluvchi ekinlarni yetishtirish | 01.16.1 Paxta yetishtirish |
| | | | | | 01.16.2 Zig‘ir yetishtirish |
| | | | | | 01.16.9 Boshqa yigiriluvchi (tolali) ekinlarni yetishtirish |
| | | | | 01.19 Boshqa mavsumiy ekinlarni yetishtirish | 01.19.1 Yem-xashak ekinlari va ularning urug‘larini yetishtirish |
| | | | | | 01.19.2 Gullar va ularning urug‘larini yetishtirish |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | 01.19.9 Boshqa toifalarga kiritilmagan ko'p yillik bo'lmagan ekinlarni yetishtirish |
| | | | 01.2 Ko'p yillik ekinlarni yetishtirish | 01.21 Uzum yetishtirish | 01.21.0 Uzum yetishtirish |
| | | | | 01.22 Tropik va subtropik mevalar yetishtirish | 01.22.0 Tropik va subtropik mevalar yetishtirish |
| | | | | 01.23 Sitrus mevalar yetishtirish | 01.23.0 Sitrus mevalar yetishtirish |
| | | | | 01.24 Urug'li va danakli mevalar yetishtirish | 01.24.0 Urug'li va danakli mevalar yetishtirish |
| | | | | 01.25 Boshqa daraxt va butalarda o'sadigan mevalar hamda yong'oq turlarini yetishtirish | 01.25.0 Boshqa daraxt va butalarda o'sadigan mevalar hamda yong'oq turlarini yetishtirish |
| | | | | 01.26 Moyli mevalar yetishtirish | 01.26.0 Moyli mevalar yetishtirish |
| | | | | 01.27 Ichimlik ishlab chiqarish uchun ekinlar yetishtirish | 01.27.0 Ichimlik ishlab chiqarish uchun ekinlar yetishtirish |
| | | | | 01.28 Ziravorlar, xushbo'y, kuchli narkotik va farmatsevtika ekinlarini yetishtirish | 01.28.0 Ziravorlar, xushbo'y, kuchli narkotik va farmatsevtika ekinlarini yetishtirish |
| | | | | 01.29 Boshqa ko'p yillik ekinlarni yetishtirish | 01.29.0 Boshqa ko'p yillik ekinlarni yetishtirish |
| | | | 01.3 Ko'chatxona mahsulotlari ishlab chiqarish | 01.30 Ko'chatxona mahsulotlari ishlab chiqarish | 01.30.0 Ko'chatxona mahsulotlari ishlab chiqarish |
| | | | 01.4 Chorvachilik | 01.41 Yirik shoxli qoramollarning sut beradigan zotlarini ko'paytirish | 01.41.0 Yirik shoxli qoramollarning sut beradigan zotlarini ko'paytirish |
| | | | | 01.42 Yirik shoxli qoramollarning boshqa zotlarini va buyvollarni ko'paytirish | 01.42.0 Yirik shoxli qoramollarning boshqa zotlarini va buyvollarni ko'paytirish |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | 01.43 Otlar va boshqa tuyoqli zotlarni koʻpaytirish | 01.43.1 Otlarni koʻpaytirish |
| | | | | | 01.43.2 Eshaklar, xachirlar va boshqa tuyoqli zotlarni koʻpaytirish |
| | | | | 01.44 Tuyalar va tuyasimonlarni koʻpaytirish | 01.44.0 Tuyalar va tuyasimonlarni koʻpaytirish |
| | | | | 01.45 Qoʻylar va echkilarni koʻpaytirish | 01.45.1 Qorakoʻl zotli qoʻylarni koʻpaytirish |
| | | | | | 01.45.2 Qorakoʻl zotlilardan tashqari qoʻylarni koʻpaytirish |
| | | | | | 01.45.3 Echkilarni koʻpaytirish |
| | | | | 01.46 Choʻchqalar va choʻchqa bolalarini koʻpaytirish | 01.46.0 Choʻchqalar va choʻchqa bolalarini koʻpaytirish |
| | | | | 01.47 Parrandachilik | 01.47.0 Parrandachilik |
| | | | | 01.48 Hayvonlarning boshqa turlarini koʻpaytirish | 01.48.1 Ipak qurtini koʻpaytirish |
| | | | | | 01.48.2 Asalarilarni koʻpaytirish |
| | | | | | 01.48.3 Quyonlar va boshqa moʻynali hayvonlarni koʻpaytirish |
| | | | | | 01.48.9 Boshqa toifalarga kiritilmagan hayvonlarni koʻpaytirish |
| | | | 01.5 Aralash qishloq xoʻjaligi | 01.50 Aralash qishloq xoʻjaligi | 01.50.0 Aralash qishloq xoʻjaligi |
| | | | 01.6 Qishloq xoʻjalik sohasidagi yordamchi faoliyat turlari | 01.61 Qishloq xoʻjalik ekinlari yetishtirish sohasidagi yordamchi faoliyat turlari | 01.61.1 Qishloq xoʻjalik texnikasini operatori va texnik xodimi bilan berish |
| | | | | | 01.61.2 Oʻsimliklarni kasallik va zararkunanda hashoratlardan, shuningdek |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | kemiruvchilardan himoya qilish |
| | | | | | 01.61.3 Qishloq xo‘jalik sug‘orish uskunalariga xizmat ko‘rsatish |
| | | | | | 01.61.9 Dehqonchilik sohasida boshqa xizmatlar ko‘rsatish |
| | | | | 01.62 Hayvonlarni ko‘paytirish sohasidagi yordamchi faoliyat turlari | 01.62.0 Hayvonlarni ko‘paytirish sohasidagi yordamchi faoliyat turlari |
| | | | | 01.63 Hosil yig‘ilgandan keyingi qishloq xo‘jalik faoliyati hamda urug‘larga ishlov berish va ekishga tayyorlash | 01.63.0 Hosil yig‘ilgandan keyingi qishloq xo‘jalik faoliyati hamda urug‘larga ishlov berish va ekishga tayyorlash |
| | | | 01.7 Ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish, bu sohalarda xizmat ko‘rsatish | 01.70 Ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish, bu sohalarda xizmat ko‘rsatish | 01.70.0 Ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish, bu sohalarda xizmat ko‘rsatish |
| | | 03 Baliq ovlash va akvakultura | 03.1 Baliq ovlash | 03.11 Dengizlarda baliq ovlash | 03.11.0 Dengizlarda baliq ovlash |
| | | | | 03.12 Chuchuk suvlarda baliq ovlash | 03.12.0 Chuchuk suvlarda baliq ovlash |
| | | | 03.2 Akvakultura | 03.21 Dengiz akvakulturasi | 03.21.0 Dengiz akvakulturasi |
| | | | | 03.22 Chuchuk suv akvakulturasi | 03.22.0 Chuchuk suv akvakulturasi |
| | | | 03.3 Baliq ovlash va akvakultura sohasidagi yordamchi faoliyat turlari | 03.30 Baliq ovlash va akvakultura sohasidagi yordamchi faoliyat turlari | 03.30.0 Baliq ovlash va akvakultura sohasidagi yordamchi faoliyat turlari |
| 2 | C – seksiya Ishlab chiqaradigan sanoat | 10 Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish | 10.1 Go‘shtni qayta ishlash va konservalash, go‘sht | 10.11 Uy parrandalari go‘shtidan tashqari go‘shtni qayta ishlash | 10.11.1 Qushxonalarda mol so‘yish, go‘shtga ishlov berish yoki qadoqlash |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | mahsulotlari ishlab chiqarish | | 10.11.2 Yangi, sovitilgan va muzlatilgan go‘sht ishlab chiqarish |
| | | | | | 10.11.9 Go‘shtni qayta ishlash bo‘yicha boshqa faoliyat |
| | | | | 10.12 Uy parrandalari go‘shtini qayta ishlash | 10.12.0 Uy parrandalari go‘shtini qayta ishlash |
| | | | | 10.13 Go‘shtdan va uy parrandalari go‘shtidan mahsulotlar ishlab chiqarish | 10.13.1 Tuzlangan, quritilgan yoki dudlangan go‘sht, parranda go‘shti va ozuqaviy submahsulotlar ishlab chiqarish |
| | | | | | 10.13.2 Kolbasa mahsulotlarini ishlab chiqarish |
| | | | | | 10.13.9 Boshqa toifalarga kiritilmagan go‘sht mahsulotlari ishlab chiqarish |
| | | | 10.2 Baliq, qisqichbaqasimonlar va mollyuskalarni qayta ishlash va konservalash | 10.20 Baliq, qisqichbaqasimonlar va mollyuskalarni qayta ishlash va konservalash | 10.20.0 Baliq, qisqichbaqasimonlar va mollyuskalarni qayta ishlash va konservalash |
| | | | 10.3 Mevalar va sabzavotlarni qayta ishlash va konservalash | 10.31 Kartoshkani qayta ishlash va konservalash | 10.31.0 Kartoshkani qayta ishlash va konservalash |
| | | | | 10.32 Meva va sabzavot sharbatlarini ishlab chiqarish | 10.32.0 Meva va sabzavot sharbatlarini ishlab chiqarish |
| | | | | 10.39 Mevalar va sabzavotlarni qayta ishlash va konservalashning boshqa turlari | 10.39.0 Mevalar va sabzavotlarni qayta ishlash va konservalashning boshqa turlari |
| | | | 10.4 O‘simlik va hayvonlar yog‘lari va | 10.41 Yog‘lar va moylarni ishlab chiqarish | 10.41.0 Yog‘lar va moylarni ishlab chiqarish |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | moylarini ishlab chiqarish | 10.42 Margarin va ovqatga ishlatiladigan aralash yog‘lar ishlab chiqarish | 10.42.0 Margarin va ovqatga ishlatiladigan aralash yog‘lar ishlab chiqarish |
| | | | 10.5 Sut mahsulotlari va iste’mol qilinadigan muz ishlab chiqarish | 10.51 Sut mahsulotlari ishlab chiqarish | 10.51.0 Sut mahsulotlari ishlab chiqarish |
| | | | | 10.52 Muzqaymoq va boshqa iste’mol qilinadigan muz ishlab chiqarish | 10.52.0 Muzqaymoq va boshqa iste’mol qilinadigan muz ishlab chiqarish |
| | | | 10.6 Tegirmonchilik sanoati mahsulotlari, kraxmal va kraxmalli mahsulotlar ishlab chiqarish | 10.61 Tegirmon-yorma sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish | 10.61.0 Tegirmon-yorma sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish |
| | | | | 10.62 Kraxmal va kraxmalli mahsulotlar ishlab chiqarish | 10.62.0 Kraxmal va kraxmalli mahsulotlar ishlab chiqarish |
| | | | 10.7 Non va xamirdan tayyorlangan mahsulotlar ishlab chiqarish | 10.71 Non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoe ishlab chiqarish | 10.71.0 Non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoe ishlab chiqarish |
| | | | | 10.72 Suxari va pechene, xamirdan tayyorlangan uzoq saqlanadigan qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarish | 10.72.0 Suxari va pechene, xamirdan tayyorlangan uzoq saqlanadigan qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarish |
| | | | | 10.73 Unli mahsulotlar ishlab chiqarish | 10.73.0 Unli mahsulotlar ishlab chiqarish |
| | | | 10.8 Boshqa oziq — ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish | 10.81 Shakar ishlab chiqarish | 10.81.0 Shakar ishlab chiqarish |
| | | | | 10.82 Kakao, shokolad va sershakar qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish | 10.82.0 Kakao, shokolad va sershakar qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish |
| | | | | 10.83 Choy va qahva ishlab chiqarish | 10.83.0 Choy va qahva ishlab chiqarish |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | 10.84 Ziravor va ta’m beruvchi mahsulotlari ishlab chiqarish | 10.84.0 Ziravor va ta’m beruvchi mahsulotlari ishlab chiqarish |
| | | | | 10.85 Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish | 10.85.0 Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish |
| | | | | 10.86 Bolalar ovqati va parhez oziq — ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish | 10.86.0 Bolalar ovqati va parhez oziq — ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish |
| | | | | 10.89 Boshqa toifalarga kiritilmagan oziq — ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish | 10.89.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan oziq — ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish |
| | | | 10.9 Hayvonlar uchun tayyor ozuqa ishlab chiqarish | 10.91 Fermalarda boqiladigan hayvonlar uchun tayyor ozuqa ishlab chiqarish | 10.91.0 Fermalarda boqiladigan hayvonlar uchun tayyor ozuqa ishlab chiqarish |
| | | | | 10.92 Uy hayvonlari uchun tayyor ozuqa ishlab chiqarish | 10.92.0 Uy hayvonlari uchun tayyor ozuqa ishlab chiqarish |
| | | 11 Ichimliklar ishlab chiqarish | 11.0 Ichimliklar ishlab chiqarish | 11.01 Spirtli ichimliklarni distillash, tozalash va aralashtirish | 11.01.0 Spirtli ichimliklarni distillash, tozalash va aralashtirish |
| | | | | 11.02 Uzumdan vino ishlab chiqarish | 11.02.0 Uzumdan vino ishlab chiqarish |
| | | | | 11.03 Sidr (olma vinosi) va boshqa mevali fermentlangan ichimliklar ishlab chiqarish | 11.03.0 Sidr (olma vinosi) va boshqa mevali fermentlangan ichimliklar ishlab chiqarish |
| | | | | 11.04 Boshqa distillanmagan, fermentlangan (bijg‘itilgan) ichimliklar ishlab chiqarish | 11.04.0 Boshqa distillanmagan, fermentlangan (bijg‘itilgan) ichimliklar ishlab chiqarish |
| | | | | 11.05 Pivo ishlab chiqarish | 11.05.0 Pivo ishlab chiqarish |
| | | | | 11.06 Solod (undirib yanchilgan bug‘doy, | 11.06.0 Solod (undirib yanchilgan |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | arpa va sh.k.) ishlab chiqarish | bug‘doy, arpa va sh.k.) ishlab chiqarish |
| | | | | 11.07 Spirtsiz ichimliklar va boshqa butilkada suvlar ishlab chiqarish | 11.07.0 Spirtsiz ichimliklar ishlab chiqarish; butilkada mineral suvlar va boshqa suvlar ishlab chiqarish |
| | | 12 Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish | 12.0 Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish | 12.00 Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish | 12.00.0 Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish |
| 3 | N – seksiya Professional, ilmiy va texnik faoliyat | 75 Veterinariya faoliyati | 75.0 Veterinariya faoliyati | 75.00 Veterinariya faoliyati | 75.00.0 Veterinariya faoliyati |

TMR quyidagi kasbiy faoliyat turlari va mashg‘ulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan:

| T/r | Mashg‘ulot guruhi kodi | Mashg‘ulot guruhi nomi |
|---|---|---|
| 1 | 13111 | O‘simlikshunoslik va chorvachilik sohasidagi bo‘linmalar rahbarlari |
| 2 | 13120 | Baliqchilik va baliqchilik ishlab chiqarishi va ekspluatatsiya qilish bo‘linmalar rahbarlari |
| 3 | 21323 | Qishloq xo‘jaligi sohasidagi professional-mutaxassislar |
| 4 | 21324 | Baliq xo‘jaligi sohasidagi professional-mutaxassislar |
| 5 | 21325 | O‘rmon xo‘jaligi sohasidagi professional-mutaxassislar |
| 6 | 21326 | Chorvachilik sohasidagi professional-mutaxassislar |
| 7 | 21444 | Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish bo‘yicha muhandislar |
| 8 | 22500 | Veterinarlar |
| 9 | 31163 | Oziq-ovqat ishlab chiqarish texnologiyalari bo‘yicha texniklar |
| 10 | 31421 | O‘simlikshunoslik va agronomiya sohasi texniklari |
| 11 | 31422 | Chorvachilik va baliqchilik sohasi texniklari |
| 12 | 32400 | Veterinariya bo‘yicha feldsherlar va texniklar |
| 13 | 61120 | Daraxtlar va butalar mevalarini yetishtirishga ixtisoslashgan ishlab chiqaruvchilar |
| 14 | 61131 | Ko‘chat yetishtirish bo‘yicha bog‘dorchilik ishchilari |
| 15 | 61132 | Bog‘bonlar va bog‘dorchilik xodimlari |
| 16 | 61140 | Aralash dehqonchilik mahsulotlarini yetishtiruvchilar |
| 17 | 61211 | Ozuqa tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi ishchilar va fermerlar |
| 18 | 61212 | Chorvachilikda naslchilik bilan shug‘ullanuvchi ishchilar va fermerlar |
| 19 | 61219 | Boshqa mashg‘ulot guruhlariga kiritilmagan chorvachilik (go‘sht) va sut mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar, b.g.k. |

| | | |
|---|---|---|
| 20 | 61221 | Parrandaboqarlar |
| 21 | 61222 | Parrandalarni sun'iy ko'paytirish bo'yicha ishchilar |
| 22 | 61229 | Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan parrandaboqarlar, b.g.k. |
| 23 | 61230 | Asalarichilar va pillakorlar |
| 24 | 61290 | Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan chorvadorlar, b.g.k. |
| 25 | 61300 | Aralash dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar |
| 26 | 62210 | Baliq yetishtiruvchilar (marivodlar) va shu kabi soha vakillari |
| 27 | 62230 | Chuqur suv havzalarida baliq ovlash xodimlari |
| 28 | 62240 | Ovchilar |
| 29 | 75111 | Go'sht, baliq va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar |
| 30 | 75112 | Go'sht, baliq va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlovchilar |
| 31 | 75121 | Novvoylar |
| 32 | 75122 | Qandolatchilar |
| 33 | 75123 | Qand ishlab chiqaruvchilar |
| 34 | 75130 | Sut mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar |
| 35 | 75140 | Meva va sabzavotlarni ishlab chiqaruvchilar va qayta ishlovchilar |
| 36 | 75150 | Oziq-ovqat mahsulotlarini va ichimliklarni degustatorlari va navini aniqlovchilar |
| 37 | 92110 | O'simlikshunoslik sohasidagi malakasiz ishchilar |
| 38 | 92120 | Chorvachilik xo'jaligi malakasiz ishchilari |
| 39 | 92130 | Aralash o'simlik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda malakasiz ishchilar |
| 40 | 92140 | Bog'dorchilik xo'jaligida band bo'lgan malakasiz ishchilar |
| 41 | 92160 | Baliqchilik va dengiz mahsulotlari ishlab chiqarishda band bo'lgan malakasiz ishchilar |

## 3. Tarmoq tahlili

So'nggi yillarda tarmoq barqarorligini ta'minlash bo'yicha qabul qilingan ko'plab chora-tadbirlar, tarkibiy islohotlar o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. O'tgan yil davomida, jiddiy muammolarga qaramay, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tizimlari mustahkam va barqaror bo'lib qolmoqda. Bu esa shakllangan sektor tajribasi hamda ta'minot zanjiri tuzilmalarining ishonchliligidan dalolat beradi. Pirovardida, iste'molchilar uchun keng turdagi yuqori sifatli, arzon qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlaridan muntazam foydalanish imkoniyati yaratilmoqda.

Bu o'rinda Qishloq xo'jaligi vazirligi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organi hisoblanishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-iyuldagi 571-son qarorining 1-ilovasi bilan belgilab qo'yilgan. Ushbu vakolati doirasida vazirlik tomonidan 2019-2025-yillarda qishloq xo'jaligi sohasiga doir 431 ta normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Xususan, 2025-yilda agrar islohotlarni takomillashtirish bo'yicha 14 ta qonun loyihasi, 17 ta Prezident Farmoni loyihasi, 22 ta Prezident Qarori loyihasi, 91 ta Hukumat Qarori loyihalari ishlab chiqilib, ulardan 55 tasi, jumladan 4 ta Qonun,

8 ta Prezident Farmoni, 16 ta Prezident Qarori, 26 ta Hukumat qarori normativ hujjatlar qabul qilindi.

Bugungi kunda aholining oziq-ovqat mahsulotlariga, xususan, kartoshkaga boʻlgan talabini qondirish, ichki bozorda narxlar barqarorligini taʼminlash hamda mahsulot yetishtiruvchilarni sifatli urugʻlik bilan taʼminlash boʻyicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, 2025-yil hosili uchun respublika boʻyicha jami 237 ming gektar maydonga kartoshka ekilib, shundan 97 ming gektari fermer xoʻjaliklari, 140 ming gektari esa dehqon xoʻjaliklari va aholi tomorqalari hissasiga toʻgʻri keldi. Ushbu maydonlardan 3,8 million tonna kartoshka hosili yigʻib olindi.

Shu bilan birga, respublika sharoitida ilk bor Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida dengiz sathidan 700 metr balandlikda joylashgan yer maydonida Misrning yuqori avlodli urugʻlik kartoshka ishlab chiqaruvchi “EFC Plants Tissue Culture S.A.E.” kompaniyasi bilan hamkorlikda “CARA” navli kartoshkaning (G1) 500 ming dona mini-tuganaklari 5 gektar maydonga sinov tariqasida ekildi. Natijada ushbu maydondan 150 tonna super-super elita urugʻlik kartoshka yetishtirildi.

Kartoshka urugʻchiligini yanada rivojlantirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 8 sentabrdagi PQ–269-son qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq, 2026 yildan boshlab har yili kartoshkaning in-vitro oʻsimliklari va mikrotuganaklaridan 10 million dona mini-tuganak yetishtirish xarajatlarini qoplash uchun respublika byudjetidan 1,5 million AQSh dollari ekvivalentida mablagʻ ajratilishi belgilangan.

Mazkur mablagʻlar hisobidan yetishtirilgan, unuvchanlik darajasi 85 foizdan kam boʻlmagan mini-tuganaklar ixtisoslashgan tumanlardagi yuqori avlodli urugʻlik yetishtiruvchilarga begʻaraz yetkazib beriladi. Xususan, 2026 yilda 4 million dona, 2027 yilda 6 million dona, 2028 yildan boshlab esa 10 million dona mini-tuganak yetkazib berilishi rejalashtirilgan.

Natijada fermer va qishloq xoʻjaligi korxonalarida 2027 yilda 2,5 ming tonna, 2028 yilda 27 ming tonna, 2029 yilda 147 ming tonna va 2030 yilda 747 ming tonna yuqori avlodli urugʻlik kartoshka yetishtirish prognoz qilinmoqda.

Shuningdek, 2026-yil hosili uchun kartoshka ekiladigan maydonlar 284 ming gektarga yetkazilib, bu 2025 yilga nisbatan 47 ming gektarga koʻpdir. Ushbu maydonlardan 4,5 million tonna hosil yetishtirish rejalashtirilgan.

Yuqori avlodli urugʻlik kartoshka yetishtirishga ixtisoslashgan 9 ta tumanda tajribali urugʻlik yetishtiruvchilar tanlab olinib, 4 million dona mini-tuganak begʻaraz ajratiladi. Ular 40 gektar maydonga ekilib, 1,2 ming tonna superelita urugʻlik olish koʻzda tutilgan.

Bundan tashqari, 2025-yil hosilidan jamgʻarilgan hamda xorijdan keltirilgan elita urugʻliklar hisobidan jami 40 ming tonna sifatli urugʻlik kartoshka kartoshka yetishtiruvchilarga ustamalarsiz yetkazib berilib, 15 ming gektar maydonga ekiladi. Bu esa hosildorlikni 25–30 foizga oshirish imkonini beradi.

O‘zbekistonda aholini choy mahsuloti bilan ta’minlash va ushbu yo‘nalishda ilmiy asoslangan ishlarni tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2018-yildagi tegishli qaroriga muvofiq “O‘zbekozikovqatxolding” xolding kompaniyasi tashabbusi bilan “Choy yetishtirishni rivojlantirish ilmiy-ishlab chiqarish markazi” tashkil etilgan.

2018-yildan boshlab Samarqand, Navoiy va Toshkent viloyatlarida tajriba tariqasida choy yetishtirish ishlari boshlangan. Jumladan, Samarqand viloyati Urgut tumani tog‘ va tog‘ oldi hududlarida Gruziyadan keltirilgan “Kolxida” va “Buketi” navlari ekilgan. Biroq mazkur navlar mahalliy iqlim sharoitiga yetarlicha moslashmagani sababli kutilgan natijalarga erishilmagan, saqlab qolingan ko‘chatlardan olingan mahsulotda dorivorlik va foydali xususiyatlar pastligi kuzatilgan.

Shuningdek, choy yetishtirish bo‘yicha mahalliy tajriba va amaliy ko‘nikmalarning yetarli emasligi, iqlim sharoitining keskinligi hamda namlik darajasining pastligi yangi plantatsiyalar tashkil etishda muayyan muammolarni keltirib chiqargan.

Mutaxassislar xulosasiga ko‘ra, istiqbolli choy plantatsiyalari dengiz sathidan 1000–2000 metr balandlikda joylashgan, mo‘tadil iqlimli, yog‘ingarchiligi ko‘p bo‘lgan tog‘li hududlarda tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Choy yetishtirish uchun tuproqning pH ko‘rsatkichi 4,5–6,5, havo harorati o‘rtacha 10–25 °C, namlik darajasi esa 70–80 foiz bo‘lishi talab etiladi. O‘zbekiston sharoitida esa o‘rtacha harorat 13–15 °C, namlik miqdori 40–50 foizni tashkil etadi.

Ushbu omillarni inobatga olgan holda, hozirgi kunda mamlakatimizda choy yetishtirishni ilmiy asosda yo‘lga qo‘yish bo‘yicha tadqiqot ishlari izchil davom ettirilmoqda. Xususan, 2023–2025-yillarda Toshkent davlat agrar universiteti olimlari tomonidan turli iqlim hududlarida choy o‘simligini introduksiya qilish va agrotexnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borildi.

Tadqiqotlar Yaponiyadan keltirilgan “Sayamakaori”, “Sayamadori”, “Fushin”, “Hokimidori” va “Hokima” navlari asosida Toshkent viloyati Ohangaron tumani hamda Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumanida, dengiz sathidan 1000–1600 metr balandlikdagi hududlarda amalga oshirildi. Ushbu jarayonda Yaponiyaning Tokio qishloq xo‘jaligi va texnologiyalar universiteti olimlari hamda Rossiya Federatsiyasining Sochi shahrida joylashgan “Saloxoul” choy kompaniyasi mutaxassislari bilan hamkorlik qilindi.

Ilmiy natijalarga ko‘ra, “Fushin” va “Hokimidori” navlari mahalliy tuproq-iqlim sharoitiga nisbatan yaxshiroq moslashgan, qolgan navlar esa samara bermagan.

Ayni paytda Xitoy, Rossiya, Gruziya, Ozarbayjon va boshqa davlatlardan iqlimimizga mos navlarni olib kelish, ularni adaptatsiya qilish va yetishtirish agrotexnologiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar davom ettirilmoqda. Jumladan, Jizzax, Samarqand, Surxondaryo, Toshkent va Farg‘ona viloyatlarining tog‘ va tog‘ oldi hududlarida choy yetishtirish imkoniyatlari o‘rganilmoqda.

Choy oʻsimligi 5–7 yilda dastlabki hosilni berishi, shuningdek, Oʻzbekistonning quruq va keskin harorat oʻzgarishi kuzatiladigan iqlim sharoitiga moslashishi murakkab jarayon ekanligi inobatga olinib, mazkur tadqiqotlar bosqichma-bosqich davom ettiriladi.

Shu bilan birga, Toshkent davlat agrar universiteti olimlari tomonidan choy oʻrnini bosuvchi mahsulot sifatida tut daraxti bargidan choy ishlab chiqarish boʻyicha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda tut bargining shifobaxsh xususiyatlari, yigʻish, quritish va qayta ishlashning optimal usullari oʻrganilmoqda.

Hozirgi kunda Fargʻona viloyati Margʻilon shahrida “Nurli tong silk” MChJ tomonidan Xitoy texnologiyasi asosida qora va koʻk turdagi tut bargi choyi ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyilgan.

Mamlakat hududlarida issiqxona xoʻjaliklari egalari bilan uchrashuvlar oʻtkazilib, ularning faoliyatiga taʼsir qilayotgan omillar oʻrganilmoqda. Muammolarni bartaraf etish, biznes jarayonlarini yengillashtirish va sohada barqarorlikni taʼminlash maqsadida amaliy choralar koʻrilmoqda. Shu munosabat bilan 2025-yil 10-oktabrda qabul qilingan PF-181-son Farmon asosida issiqxona xoʻjaliklarini qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan imtiyozlar joriy etildi.

Farmon bilan:

– 2026-2028-yillarda umumiy daromadining kamida 60 foizi issiqxona faoliyatidan shakllangan tadbirkorlarga ijtimoiy soliq 1 foiz etib belgilandi;

– 2025-yil 1-oktabrgacha shakllangan soliq qarzlari 2028-yil yakunigacha foizsiz muddatga uzaytirildi;

– yer soligʻi boʻyicha tartiblar qayta koʻrib chiqilib, soliq yuki kamaytirildi;

– issiqxona majmualarini yer toifasini oʻzgartirmasdan rasmiylashtirish va kredit taʼminoti sifatida qabul qilish amaliyoti joriy qilindi;

– infratuzilma obyektlari uchun yer maydonidan foydalanish imkoniyatlari kengaytirildi.

Shuningdek, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari toʻgʻrisida”gi Qonunning 34-moddasiga muvofiq tadbirkor faoliyatiga aralashish taqiqlanadi. Shu bois vazirlik issiqxonalarda maʼlum ekinni majburiy ekish yoki joylashtirish boʻyicha vakolatga ega emas. Ekin turi bozor talabi va taklifiga koʻra tadbirkor tomonidan mustaqil belgilanadi.

Bundan tashqari, “Oziq-ovqat xavfsizligi toʻgʻrisida”gi Qonunning 9-moddasiga asosan, aholining sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlariga boʻlgan ehtiyojini qondirish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishi hisoblanadi. Ushbu jarayonda bozor mexanizmlariga amal qilinadi. Mazkur tartib bodring mahsulotiga ham tegishli boʻlib, uning yetishtirilishi, realizatsiyasi va narx shakllanishi bozor tamoyillariga asoslanadi.

Qishloq xoʻjaligi vazirligi tomonidan bozor konyunkturasi, mahsulot hajmi va narx dinamikasi boʻyicha tavsiyaviy maʼlumotlar taqdim etib boriladi. Shu oʻrinda taʼkidlash joizki, bodring mazkur mavsumda aholining kundalik asosiy isteʼmol

sabzavotlari roʻyxatiga kirmaydi va narx belgilanishi talab-taklif, mavsumiylik va issiqxona texnologiyalari xarajatlari bilan bogʻliq holda shakllanadi.

Sohadagi yirik korxona va tashkilotlar:

Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qoʻmitasi;

Oʻsimliklar karantini va himoyasi agentligi;

Agrosanoatni rivojlantirish agentligi;

Oziq-ovqat va qishloq xoʻjaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi;

Qishloq xoʻjaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi;

“Oʻzdavyerloyiha” Davlat ilmiy loyihalash instituti;

Qishloq xoʻjaligi navlarini sinash markazi;

Qishloq xoʻjaligi texnikasi va texnologiyalarini sertifikatlash va sinash davlat markazi;

Urugʻchilikni rivojlantirish markazi;

«Agrosanoatni raqamlashtirish markazi» MCHJ;

“Maʼmuriy-xoʻjalik xizmati” davlat muassasasi.

Sohadagi taʼlim tashkilotlari:

Toshkent davlat agrar universiteti;

Qoraqalpogʻiston qishloq xoʻjaligi va agrotexnologiyalar instituti;

Andijon qishloq xoʻjaligi va agrotexnologiyalar instituti;

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti.

Kadrlar tayyorlash tizimining tahlili.

Qishloq xoʻjaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xoʻjaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi Qishloq xoʻjaligi sohasi kadrlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti hamda Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qoʻmitasi huzurida Veterinariya va chorvachilik sohasida pedagog hamda mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tashkil etildi.

Institutlarning asosiy vazifalari va faoliyat yoʻnalishlari:

Qishloq xoʻjaligi vazirligi markaziy apparati, tizimdagi tashkilot va korxonalar rahbar va mutaxassis kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash;

Agrar va veterinariya, chorvachilik faoliyati sohadagi oliy, professional taʼlim hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarining pedagog va ilmiy kadrlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash;

davlat taʼlim standartlari, kasbga doir bilim va koʻnikmalarga qoʻyilgan talablar asosida mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda kasbiy maʼlumotga ega agrar, veterinariya va oziq-ovqat sanoati sohasidagi tashkilotlar xodimlari uchun qoʻshimcha ixtisoslik boʻyicha pullik asosda malaka oshirish va qayta tayyorlash oʻquv kurslarini tashkil etish;

Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish: sohadagi mutaxassislarning bilim va koʻnikmalarini doimiy ravishda yangilab borish, ularni xalqaro standartlar darajasida tayyorlash.

Qishloq xo‘jaligi, veterinariya va chorvachilik hamda oziq-ovqat sohalarida ilmiy izlanishlarni kuchaytirish, yangi texnologiyalar va usullarni joriy etish.

Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlash, tajriba almashish va qo‘shma loyihalarni amalga oshirish.

Mamlakatimizda veterinariya sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, shuningdek, samarali veterinariya nazoratini ta’minlash va veterinariya xizmatlari ko‘rsatish sifatini oshirish bo‘yicha keng miqyosli ishlar amalga oshirilmoqda.

“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ga muvofiq belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi “Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-187-son qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror ijrosi bo‘yicha Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti bilan birgalikda ushbu sohada kadrlar tayyorlaydigan professional ta’lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladigan quyidagi ustuvor vazifalar belgilandi:

veterinariya, chorvachilik, biotexnologiya, agrotexnologiya, agroiqtisodiyot tarmoqlari uchun sifatli kadrlarni tayyorlash;

zamonaviy o‘quv va ilmiy-laboratoriya bazasini shakllantirish, uni ilg‘or texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlash hamda sohani rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-innovatsion tadqiqotlarni kengaytirish;

o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish, xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va innovatsion o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish, veterinariya klinikasi, o‘quv va ilmiy laboratoriya, o‘quv-tajriba xo‘jaligi, ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalarida nazariy bilim hamda amaliyotning uyg‘unligini ta’minlash uchun zarur sharoitlar yaratish;

ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha uzluksiz ta’lim tizimini yaratish va boshqa ustuvor vazifalar belgilangan. Bugungi kunda yuqoridagi vazifalar ijrosi bo‘yicha kasbiy ta’lim muassasalarida malakali mutaxassislar tayyorlanib, respublika bo‘yicha 35 ta kasbiy ta’lim muassasasida mazkur yo‘nalishda kadrlar tayyorlanmoqda.

Ushbu ta’lim muassasalarida 1 500 ga yaqin o‘quvchilar veterinariya meditsinasi bo‘yicha tahsil olishmoqda Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash bo‘yicha professional ta’lim muassasalarida qabul jarayonlariga hamda ta’limning kunduzgi, sirtqi va kechki, shuningdek, dual ta’lim tizimi joriy etilganiga ham e’tibor qaratildi. Texnikumlarda ushbu kasb va ixtisoslik bo‘yicha ta’limning barcha shakllariga tahsil olish imkoniyati yaratilgan. Ayniqsa, dual ta’lim tizimi kengroq amaliyotga joriy etilmoqda. Ushbu ta’lim dasturini keng yoritish maqsadida professional ta’lim tizimidagi xorijiy tajribalarni mamlakatimizda joriy etish, xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish maqsadida bir qator xalqaro

moliya institutlari bilan loyihalar tashkil etilmoqda. Xulosa qilib aytganda, bugun veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlashning ustuvor yoʻnalishlari belgilangan boʻlib, ushbu yoʻnalishda oliy taʼlim muassasalari bilan birgalikda professional taʼlim muassasalari ham sohaga ushbu kasb va ixtisosliklar boʻyicha malakali va sifatli kadrlar tayyorlash boʻyicha salmoqli hissa qoʻshmoqda.

Tarmoq kengashi faoliyati tahlili.

Tarmoq kengashining faoliyatini tashkil etishga masʼul sifatida unga vazirlik tizimidagi Toshkent davlat agrar universiteti, Boʻka va Sirdaryo agrotexnologiyalar texnikumlari, Paxta seleksiyasi, urugʻchiligi va yetishtirish agrotexnologiyalar ilmiy-tadqiqot instituti biriktirildi.

Tarmoq kengashining doimiy Ishchi organi etib Toshkent davlat agrar universiteti belgilandi.

Hozirgi kunda universitetda xalqaro munosabatlarni kengaytirish va chuqurlashtirishga katta eʼtibor qaratilmoqda. Xorijiy oliy taʼlim muassasalari bilan 50 ga yaqin shartnoma va memorandumlar imzolangan. Ularga asosan universitetning talabalari Germaniya, Rossiya singari davlatlarda ishlab chiqarish amaliyotlarini oʻtab kelishmoqda, professor-oʻqituvchilar dunyoning turli davlatlariga xalqaro loyihalar doirasida oʻquv kurslari va seminarlarda ishtirok etib kelishmoqda.

Oliy taʼlim muassasalarida xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish maqsadida 2020-yil davomida 10 ta xorijiy OTMlari bilan hamkorlik shartnomalari tuzildi. Ularga asosan 25 ta mavzuda vebinar mashgʻulotlari oʻtkazildi va 8 nafar xorijiy professor-oʻqituvchilar jalb qilindi.

Shuningdek, 2025-yil davomida Qishloq xoʻjaligi va veterinariya sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish boʻyicha tarmoq kengashi tomonidan qishloq xoʻjaligi sohasiga oid jami 10 ta kasbiy standart loyihasi ishlab chiqilgan.

## 4. Tarmoqqa tegishli kasblar roʻyxati

MMK-2025 ga muvofiq tarmoqqa tegishli kasblar roʻyxati quyidagi jadvalda keltiriladi:

| T/r | Lavozim va kasblar kodi | Lavozim va kasblar nomi |
|---|---|---|
| | | **Qishloq xoʻjaligi** |
| 1. | 13111001 | Bosh agrokimyogar |
| 2. | 13111002 | Bosh agronom |
| 3. | 13111003 | Bosh agronom (oʻsimliklar karantini va himoyasi boʻyicha davlat inspektori) |
| 4. | 13111004 | Bosh bakteriolog |
| 5. | 13111005 | Bosh biolog |
| 6. | 13111006 | Bosh entomolog |
| 7. | 13111007 | Bosh fitogelmintolog |
| 8. | 13111008 | Bosh fitopatolog |

| | | |
|---|---|---|
| 9. | 13111009 | Bosh gerbolog |
| 10. | 13111010 | Bosh meliorator |
| 11. | 13111011 | Bosh mikolog |
| 12. | 13111012 | Bosh mikrobiolog |
| 13. | 13111013 | Bosh muhandis-gidrotexnik |
| 14. | 13111014 | Bosh muhandis-meliorator |
| 15. | 13111015 | Bosh seleksioner |
| 16. | 13111016 | Bosh tamakishunos |
| 17. | 13111017 | Bosh toksikolog |
| 18. | 13111018 | Bosh tuproqshunos |
| 19. | 13111019 | Bosh veterinar shifokor |
| 20. | 13111020 | Bosh vinopaz |
| 21. | 13111021 | Bosh virusolog |
| 22. | 13111022 | Bosh zootexnik |
| 23. | 13111023 | Dala (zararsizlantirish, komposterlash, tajriba) mudiri |
| 24. | 13111024 | Elevator boshligʻi |
| 25. | 13111025 | Fermer xoʻjaligi rahbari |
| 26. | 13111026 | Inkubator mudiri |
| 27. | 13111027 | Issiqxona xoʻjaligi mudiri |
| 28. | 13111028 | Kanal (kanallar guruhi) boshligʻi |
| 29. | 13111029 | Koʻchatxona (Pitomnik) boshligʻi |
| 30. | 13111030 | Oʻsimliklar karantini chegara maskani mudiri |
| 31. | 13111031 | Oʻsimliklarni himoya qilish boʻyicha bosh agronom |
| 32. | 13111032 | Qishloq xoʻjaligi boʻyicha bosh davlat muhandis-inspektori |
| 33. | 13111033 | Qishloq xoʻjaligida boʻlinma (boʻlim, xizmat, qism) boshligʻi (mudiri) |
| 34. | 13111034 | Qishloq xoʻjaligida bosh geodezist |
| 35. | 13111035 | Qishloq xoʻjaligida bosh gidrogeolog |
| 36. | 13111036 | Qishloq xoʻjaligida bosh mexanik |
| 37. | 13111037 | Qishloq xoʻjaligida bosh muhandis |
| 38. | 13111038 | Qishloq xoʻjaligida boshqarma (boʻlim) boshligʻi (mudiri) |
| 39. | 13111039 | Qishloq xoʻjaligida laboratoriya boshligʻi (mudiri) |
| 40. | 13111040 | Qishloq xoʻjaligida texnik rahbar |
| 41. | 13111041 | Qishloq xoʻjaligida xizmat (shoʻba, byuro, sex, stansiya, punkt, uchastka, ombor, otryad) boshligʻi (mudiri) |
| 42. | 13111042 | Zapan texnik rahbari |
| 43. | 13111043 | Zotdor otlarni sinash boʻyicha bosh hakam |
| 44. | 13120001 | Baliq yetishtirish ustasi |
| 45. | 13120002 | Baliqchilik xoʻjaligida (uchastka, terminal, shtab, sex, qism) boshligʻi |
| 46. | 13120003 | Baliqchilik xoʻjaligida boʻlinma (boʻlim) boshligʻi (mudiri) |
| 47. | 13120004 | Baliqchilik xoʻjaligida bosh mexanik |
| 48. | 13120005 | Baliqchilik xoʻjaligida bosh muhandis |

| | | |
|---|---|---|
| 49. | 13120006 | Baliqchilik xoʻjaligida laboratoriya boshligʻi (mudiri) |
| 50. | 13120007 | Baliqchilik xoʻjaligida texnik rahbar |
| 51. | 13120008 | Baliqni qayta ishlash ustasi |
| 52. | 13120009 | Bosh baliq yetishtiruvchi |
| 53. | 13120010 | Bosh veterinar vrach |
| 54. | 21323001 | Agrokimyogar |
| 55. | 21323004 | Qishloq xoʻjaligi sohasida ilmiy xodimlar va ilmiy tadqiqotchilar |
| 56. | 21323005 | Tuproq laboratoriyasi muhandisi |
| 57. | 21323006 | Tuproqshunos |
| 58. | 21324001 | Baliq xoʻjaligi sohasida ovchi biolog |
| 59. | 21324002 | Baliqni qayta ishlash boʻyicha muhandis-texnolog |
| 60. | 21325010 | Yer oʻlchovchi |
| 61. | 21325011 | Yer resurslari inventarizatori |
| 62. | 21325012 | Yer tuzish boʻyicha muhandis |
| 63. | 21444001 | Mashina-traktor parki ekspluatatsiyasi boʻyicha muhandis |
| 64. | 21444002 | Qishloq xoʻjaligi mashinasozligi sohasida ilmiy xodimlar va ilmiy tadqiqotchilar |
| 65. | 21444003 | Qishloq xoʻjaligi mexanizatsiyasi boʻyicha muhandis |
| 66. | 21444004 | Qishloq xoʻjaligi texnikasi muhandisi |
| 67. | 21444005 | Qishloq xoʻjaligini avtomatlashtirish boʻyicha muhandis |
| 68. | 31421001 | Agrokimyogar (oʻrta malakali) |
| 69. | 31421002 | Agronom (oʻrta malakali) |
| 70. | 31421003 | Bogʻdorchilik boʻyicha texnik-agronom |
| 71. | 31421004 | Bogʻdorchilik texnigi |
| 72. | 31421005 | Dala ekinlarini yetishtirish boʻyicha texnik-agronom |
| 73. | 31421006 | Dorivor oʻsimliklar boʻyicha agronom |
| 74. | 31421007 | Kartoshkachilik boʻyicha agronom |
| 75. | 31421008 | Meva-sabzavotchilik boʻyicha texnik |
| 76. | 31421009 | Oʻsimliklar karantini boʻyicha texnik |
| 77. | 31421010 | Oʻsimliklarni himoya qilish boʻyicha agronom |
| 78. | 31421011 | Qishloq xoʻjaligi sohasida laborant tadqiqotchi |
| 79. | 31421012 | Qishloq xoʻjalik ekinlari navlarini sinovdan oʻtkazish sifatini baholash boʻyicha texnik-laborant |
| 80. | 31421013 | Urugʻchilik boʻyicha agronom |
| 81. | 31422001 | Baliqchilik texnigi |
| 82. | 61120001 | Bogʻshunos |
| 83. | 61120002 | Chim qirquvchi |
| 84. | 61120003 | Choyshunos |
| 85. | 61120004 | Meva yetishtiruvchi |
| 86. | 61120005 | Meva yetishtiruvchi fermer |
| 87. | 61120006 | Mevali daraxtlar yetishtirish ishchisi |

| | | |
|---|---|---|
| 88. | 61120007 | Uzum yetishtiruvchi |
| 89. | 61120008 | Xmel yetishtiruvchi |
| 90. | 61131001 | Bog‘bon |
| 91. | 61131002 | Bog‘dorchilik va ko‘chatchilik fermeri |
| 92. | 61131003 | Gulchilik va bog‘dorchilik sohasida malakali ishchi |
| 93. | 61131004 | Gulshunos |
| 94. | 61131005 | Kauchuk o‘simliklarini yetishtiruvchi fermer |
| 95. | 61131006 | Ko‘kalamzorlashtiruvchi |
| 96. | 61132001 | Efir moychisi |
| 97. | 61132002 | Florist-dekorator |
| 98. | 61132003 | Ko‘chat yetishtiruvchi |
| 99. | 61132004 | Ko‘chatzor brigadiri |
| 100. | 61132005 | Peyzajist-gulchi |
| 101. | 61132006 | Urug‘chilik sohasida ishchi |
| 102. | 61140001 | Aralash ekinlar turlarini yetishtirish bo‘yicha malakali qishloq xo‘jaligi ishchisi |
| 103. | 61140002 | Aralash qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish bo‘yicha fermer |
| 104. | 61140003 | Dehqon xo‘jaligi a’zosi |
| 105. | 61140004 | Entomofaglardan foydalanib ekin yetishtiruvchi ishchi |
| 106. | 61140005 | O‘simliklar karantini va himoyasi bo‘yicha ishchi |
| 107. | 61140006 | O‘simliklarni himoya qilish bo‘yicha ishchi |
| 108. | 61140007 | Pestitsidlardan foydalanib ekin yetishtiruvchi ishchi |
| 109. | 61140008 | Turli qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishga ixtisoslashgan brigadir |
| 110. | 61140009 | Turli qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishga ixtisoslashgan fermer |
| 111. | 61300001 | Aralash qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish ishchisi |
| 112. | 61300002 | Chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlashga ixtisoslashgan fermer |
| 113. | 61300003 | Dehqon xo‘jaligi rahbari |
| 114. | 61300004 | Fermer (aralash dehqonchilik va chorvachilik) |
| 115. | 61300005 | Malakali qishloq xo‘jaligi ishchisi (aralash dehqonchilik va chorvachilik) |
| 116. | 61300006 | Oilaviy tadbirkorlik boshlig‘i |
| 117. | 61300007 | O‘simlikchilik mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlashga ixtisoslashgan fermer |
| 118. | 61300008 | O‘simlikchilik va chorvachilikka ixtisoslashgan fermer |
| 119. | 61300009 | Poygachi-chavandoz |
| 120. | 62210001 | Akvakultura ishchisi |
| 121. | 62210002 | Baliqchi (baliq boquvchi) |
| 122. | 62210003 | Baliqchilik fermeri |
| 123. | 62210004 | Baliqchilikda malakali qishloq xo‘jaligi ishchisi |
| 124. | 62210005 | Baliqshunos |
| 125. | 62230001 | Baliq ovlash mashinalari va mexanizmlari mashinisti |
| 126. | 62230002 | Baliqqa ishlov berish uskunalari operatori |

| | | |
|---|---|---|
| 127. | 62240001 | Baliqchi (qarmoq, to‘rda baliq ovlovchi) |
| 128. | 62240002 | Ovchi |
| 129. | 92110001 | Hosil yig‘uvchi ishchi |
| 130. | 92110002 | Ko‘chat ekish ishchisi |
| 131. | 92110003 | Mevalarni teruvchi |
| 132. | 92110004 | Meva-sabzavot ombori ishchisi |
| 133. | 92110005 | Sabzavot teruvchi |
| 134. | 92110006 | Sug‘orish va irrigatsiya ishlari bo‘yicha ishchi |
| 135. | 92110007 | Sug‘oruvchi |
| 136. | 92110008 | Yashil tamakini qayta ishlash ishchisi |
| 137. | 92130001 | Aralash dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda malakasiz ishchi |
| 138. | 92130002 | Fermer xo‘jaligida turli ishlar yordamchi ishchisi |
| 139. | 92130003 | Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va xomashyosini qabul qiluvchi |
| 140. | 92140001 | Bog‘dorchilikda malakasiz ishchi |
| 141. | 92140002 | Gazon o‘ruvchi |
| 142. | 92140003 | Ko‘chatxonada malakasiz ishchi |
| 143. | 92140004 | Mevali bog‘ ishchisi |
| 144. | 92160001 | Baliq ovlash uskunalarini tayyorlovchi |
| 145. | 92160002 | Baliq xo‘jaligi ishchisi |
| 146. | 92160003 | Baliqchilikda (baliq yetishtirish va ov xo‘jaligi) malakasiz ishchisi |
| **Veterinariya va chorvachilik** | | |
| 147. | 21326001 | Chorvachilik sohasida ilmiy xodimlar va ilmiy tadqiqotchilar |
| 148. | 21326002 | Mahsulot sifatini nazorat qilish bo‘yicha zootexnik |
| 149. | 21326003 | Zoomuhandis |
| 150. | 21326004 | Zootexnik |
| 151. | 22500001 | Embrionlarni ko‘chirib o‘tkazish veterinariya shifokori |
| 152. | 22500002 | Epizootolog |
| 153. | 22500003 | Farmakologiya va toksikologiya veterinari |
| 154. | 22500004 | Hayvonlar patologiyasi onkologiyasi va morfologiyasi veterinari |
| 155. | 22500005 | Veterinariya bo‘yicha maslahatchi shifokor |
| 156. | 22500006 | Veterinariya sanitariya shifokori |
| 157. | 22500007 | Veterinariya shifokori |
| 158. | 22500008 | Veterinariya shifokori (epidemiolog) |
| 159. | 22500009 | Veterinariya shifokori (serolog) |
| 160. | 22500010 | Veterinariya sohasida ilmiy xodimlar va ilmiy tadqiqotchilar |
| 161. | 31422002 | Fermer-chorvachilik texnigi |
| 162. | 31422004 | Parrandachilik bo‘yicha texnik |
| 163. | 31422005 | Zootexnik-mutaxassis |
| 164. | 31422006 | Zotchilik bo‘yicha texnik |
| 165. | 31422007 | Chorvachilik sohasida laborant tadqiqotchi |

| | | |
|---|---|---|
| 166. | 32400001 | Hayvonlar tanasini qayta ishlash bo‘yicha patologoanatom |
| 167. | 32400002 | Hayvonlarni sun’iy urug‘lantirish texnigi |
| 168. | 32400003 | Veterinar hamshira |
| 169. | 32400004 | Veterinar shifokor yordamchisi |
| 170. | 32400005 | Veterinariya feldsheri |
| 171. | 32400006 | Veterinariya feldsher-laboranti |
| 172. | 32400007 | Veterinariya texnigi |
| 173. | 32400008 | Veterinariya vaksinatori |
| 174. | 32400009 | Veterinariya sohasida laborant tadqiqotchi |
| 175. | 61211001 | Ozuqa tayyorlash sexlari operatori |
| 176. | 61211002 | Ozuqa tayyorlash va qayta ishlash bo‘yicha malakasiz ishchi |
| 177. | 61211003 | Ozuqa tayyorlovchi |
| 178. | 61212001 | Chorvachilikda urug‘lantirish texnigi |
| 179. | 61212002 | Chorvachilikka ixtisoslashgan fermer |
| 180. | 61212003 | Chorvador |
| 181. | 61212004 | Hayvonlarni va parrandalarni sun’iy urchitish bo‘yicha operator |
| 182. | 61212005 | Otshunos-gippolog |
| 183. | 61212006 | Qorako‘lchi |
| 184. | 61219001 | Chorvachilik komplekslari va fermalari brigadiri |
| 185. | 61219002 | Hayvonlarga veterinarlik ishlov berish bo‘yicha operator |
| 186. | 61219003 | Qimizchi |
| 187. | 61219004 | Qo‘ychilik komplekslari va mexanizatsiyalashgan fermalar brigadiri |
| 188. | 61219005 | Sog‘ish dastgohi operatori |
| 189. | 61219006 | Sut fermalari ishchisi |
| 190. | 61219007 | Sut mahsulotlari fermeri |
| 191. | 61219008 | Sut sog‘uvchi |
| 192. | 61219009 | Terini qayta ishlovchi |
| 193. | 61221001 | Inkubator operatori |
| 194. | 61221002 | Parrandaboqar |
| 195. | 61221003 | Parrandachilik fermeri |
| 196. | 61221004 | Tuxum ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi parrandaboqar (fermer) |
| 197. | 61222001 | Inkubator sharoitida xonaki va naslli qushlarni boquvchi qishloq xo‘jaligi ishchisi |
| 198. | 61222002 | Parranda boqish va seleksiya fermeri |
| 199. | 61222003 | Parrandalarni sun’iy urug‘lantirish bo‘yicha qishloq xo‘jaligi ishchisi |
| 200. | 61229001 | Parrandachilik komplekslari va mexanizatsiyalangan fermalar brigadiri |
| 201. | 61229002 | Parrandachi-vaksinator |
| 202. | 61229003 | Parrandalarni sun’iy urug‘lantirish mutaxassisi |
| 203. | 61229004 | Parrandalarni sun’iy urug‘lantirish operatori |
| 204. | 61230001 | Asalarichi |
| 205. | 61230002 | Grenaj bo‘yicha laborant |

| | | |
|---|---|---|
| 206. | 61230003 | Ipakchi |
| 207. | 61290001 | Bugʻushunos |
| 208. | 61290002 | Choʻchqashunos |
| 209. | 61290003 | Daydi itlar, mushuklar va boshqa hayvonlarni ovlash boʻyicha ishchi |
| 210. | 61290004 | Echki boqish fermeri |
| 211. | 61290005 | Hayvonlarga qarovchi ishchi |
| 212. | 61290006 | Hayvonlarni kuzatib borish boʻyicha kuzatuvchisi |
| 213. | 61290007 | Hayvonshunos |
| 214. | 61290008 | It zotlarini koʻpaytirish boʻyicha seleksioner |
| 215. | 61290009 | Jun va tivitni klasslovchi |
| 216. | 61290010 | Laboratoriya hayvonlari pitomnigi zoolaboranti |
| 217. | 61290011 | Qoʻy boqish fermeri |
| 218. | 61290012 | Quyonshunos |
| 219. | 61290013 | Serpentariy (pitomnik) zoolaboranti |
| 220. | 61290014 | Tibbiy zuluklarni yetishtirish boʻyicha laborant |
| 221. | 61290015 | Tuyachi |
| 222. | 61290016 | Tuyaqush boquvchi fermer |
| 223. | 61290017 | Urchitish punkti ishchisi |
| 224. | 61290018 | Vivarchi |
| 225. | 61290019 | Yirtqich hayvonlarga qarovchi ishchi |
| 226. | 61290020 | Zoologiya bazalarida hayvon boquvchi |
| 227. | 92120001 | Choʻpon |
| 228. | 92120002 | Inkubator ishchisi |
| 229. | 92120003 | Ishchi hayvonlarga gʻamxoʻrlik qiluvchi chorvador |
| 230. | 92120004 | Jun qirquvchi |
| 231. | 92120005 | Molboqar |
| 232. | 92120006 | Otboqar |
| 233. | 92120007 | Ozuqa beruvchi |
| 234. | 92120008 | Parrandachilik fermasi turli ishlar ishchisi |
| 235. | 92120009 | Pichan oʻruvchi |
| 236. | 92120010 | Podachi |
| 237. | 92120011 | Tuxum teruvchi |
| **Oziq-ovqat** | | |
| 238. | 31163001 | Oziq-ovqat kimyosi boʻyicha texnik-laborant |
| 239. | 31163002 | Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasi boʻyicha texnolog |
| 240. | 31163003 | Oziq-ovqat mahsulotlari laboratoriyasida texnik-laborant |
| 241. | 31163004 | Oziq-ovqat mahsulotlarini konservalash texnologiyasi boʻyicha texnolog |
| 242. | 31163005 | Oziq-ovqat sanoati boʻyicha texnik-texnolog |
| 243. | 31163006 | Oziq-ovqat xavfsizligi va sifat nazorati boʻyicha texnik |
| 244. | 31163007 | Texnik-biokimyogar |
| 245. | 31163008 | Texnik-enokimyogar |

| | | |
|---|---|---|
| 246. | 75111001 | Go‘sht yarim tayyor mahsulotlarini tayyorlovchi |
| 247. | 75111002 | Go‘shtdan kulinariya mahsulotlarini tayyorlovchi |
| 248. | 75111003 | Kolbasa mahsulotlarini qoliplovchi |
| 249. | 75111004 | Kolbasa mahsulotlarini to‘quvchisi |
| 250. | 75111005 | Kolbasaning sun’iy qobig‘ini tayyorlovchi |
| 251. | 75111006 | Kolbasaning tabiiy po‘stini tayyorlovchi |
| 252. | 75111007 | Oziq-ovqat xomashyosini tayyorlovchi |
| 253. | 75111008 | Oziq-ovqat yarim fabrikatlarini tayyorlovchi |
| 254. | 75111009 | Parranda go‘shtidan yarim tayyor mahsulotlarni tayyorlovchi |
| 255. | 75111001 | Go‘sht yarim tayyor mahsulotlarini tayyorlovchi |
| 256. | 75111002 | Go‘shtdan kulinariya mahsulotlarini tayyorlovchi |
| 257. | 75111010 | Suv o‘tlari kukuni va yormasini tayyorlovchi |
| 258. | 75111011 | Tovuq va quyon go‘shtidan kulinariya mahsulotlarini tayyorlovchi |
| 259. | 75112001 | Agar ilvirasi oqlovchisi |
| 260. | 75112002 | Aralashtiruvchi |
| 261. | 75112003 | Baliqqa ishlov beruvchi |
| 262. | 75112004 | Bekonchi |
| 263. | 75112005 | Frezerchi (go‘sht mahsulotlari chiqarishda) |
| 264. | 75112006 | Go‘sht chopuvchi |
| 265. | 75112007 | Go‘sht mahsulotlarini kesuvchi |
| 266. | 75112008 | Go‘sht mahsulotlarini maydalovchi |
| 267. | 75112009 | Go‘sht mahsulotlarini qadoqlovchi |
| 268. | 75112010 | Go‘sht nimtalariga ishlov beruvchi |
| 269. | 75112011 | Go‘sht va go‘sht mahsulotlarini tuzlovchi |
| 270. | 75112012 | Go‘sht va kalla-pochalarni qotiruvchi |
| 271. | 75112013 | Go‘shtni bo‘laklovchi |
| 272. | 75112014 | Ikraga ishlov beruvchi |
| 273. | 75112015 | Kalla-pochalarni ajratuvchi |
| 274. | 75112016 | Kolbasa mahsulotlariga ishlov beruvchi |
| 275. | 75112017 | Konserva mahsulotlarini qo‘yuvchi-taxlovchi |
| 276. | 75112018 | Oziq-ovqat mahsulotlari dozalovchisi |
| 277. | 75112019 | Oziq-ovqat mahsulotlari va idishlarga ishlov beruvchi |
| 278. | 75112020 | Oziq-ovqat mahsulotlarini soluvchi-chiqaruvchi |
| 279. | 75112021 | Qiyma qorishtiruvchi |
| 280. | 75112022 | Qiyma tuzuvchi |
| 281. | 75112023 | Qush go‘shtiga ishlov beruvchi |
| 282. | 75112024 | Qush go‘shtini bo‘laklovchi |
| 283. | 75112025 | Quyon go‘shtiga ishlov beruvchi |
| 284. | 75121001 | Brigadir novvoy |
| 285. | 75121002 | Milliy shirinliklar, non mahsulotlari va boshqa yeguliklar tayyorlovchi hunarmand |

| | | |
|---|---|---|
| 286. | 75121003 | Non mahsulotlarini joylashtiruvchi |
| 287. | 75121004 | Novvoy |
| 288. | 75121005 | Tandirda non yopuvchi |
| 289. | 75121006 | Usta-novvoy |
| 290. | 75121007 | Xamir qoruvchi |
| 291. | 75121008 | Xamirga shakl beruvchi |
| 292. | 75121009 | Xamirshunos |
| 293. | 75121010 | Xamirturush tayyorlovchi |
| 294. | 75121011 | Xamirturushni siqib presslovchi |
| 295. | 75121003 | Non mahsulotlarini joylashtiruvchi |
| 296. | 75121004 | Novvoy |
| 297. | 75121005 | Tandirda non yopuvchi |
| 298. | 75121006 | Usta-novvoy |
| 299. | 75121007 | Xamir qoruvchi |
| 300. | 75122001 | Biskvit ishlab chiqaruvchi (biskvitchi) |
| 301. | 75122002 | Draje tayyorlovchi |
| 302. | 75122003 | Draje va karamelni silliqlovchi |
| 303. | 75122004 | Glazur pishiruvchi |
| 304. | 75122005 | Holvapaz |
| 305. | 75122006 | Karamel ishlab chiqaruvchi (karamelchi) |
| 306. | 75122007 | Klyukvalarni silliqlovchi |
| 307. | 75122008 | Konfet ishlab chiqaruvchi (konfetchi) |
| 308. | 75122009 | Marmeladchi-pastachi |
| 309. | 75122010 | Marmeladchi-qandolat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi |
| 310. | 75122011 | Qandolat mahsulotlariga sepuvchi |
| 311. | 75122012 | Qandolatchi |
| 312. | 75122013 | Qandolatchilar brigadiri |
| 313. | 75122014 | Qandolatchilik ishlab chiqarishida vaflichi |
| 314. | 75122015 | Shokolad ishlab chiqaruvchi |
| 315. | 75122016 | Shokoladchi |
| 316. | 75122017 | Tayyor mahsulotni bezovchi |
| 317. | 75122018 | Vafli ishlab chiqaruvchi |
| 318. | 75123001 | Achituvchi |
| 319. | 75123002 | Koagulyat oqartiruvchisi |
| 320. | 75123003 | Makaron yarim tayyor mahsulotlarini presslovchi |
| 321. | 75123004 | Makkajoʻxori qalamchalarini tayyorlovchi |
| 322. | 75123005 | Markazdan qochma dastgoh boʻlinmasi brigadiri |
| 323. | 75123006 | Oqsil massa tayyorlovchi |
| 324. | 75123007 | Oziq-ovqat ishlab chiqarish texnologi (oziq-ovqat ishlab chiqarish) |
| 325. | 75123008 | Pektin ekstrakti kupajchisi |
| 326. | 75123009 | Pektinni koagullovchi |

| | | |
|---|---|---|
| 327. | 75123010 | Rafinadni ajratuvchi |
| 328. | 75123011 | Retsepturachi |
| 329. | 75123012 | Valichi |
| 330. | 75123013 | Xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar jo‘vachisi |
| 331. | 75130001 | Brinzapaz |
| 332. | 75130002 | Brinzapaz-usta |
| 333. | 75130003 | Eritma pishloq aralashmasini tuzuvchi |
| 334. | 75130004 | Kolbasasimon pishloqni dudlovchi |
| 335. | 75130005 | Muzqaymoq va siroklarni sirlovchi |
| 336. | 75130006 | Muzqaymoqni toblovchi |
| 337. | 75130007 | Muzqaymorq tayyorlovchi |
| 338. | 75130008 | Oziq-ovqat mahsulotlari defrostatchisi |
| 339. | 75130009 | Pishloq qoliplovchisi (yuvuvchi) |
| 340. | 75130010 | Pishloqchi |
| 341. | 75130011 | Pishloqni tuzlovchi |
| 342. | 75130012 | Pishloqni yetiltiruvchi |
| 343. | 75130013 | Pishloqni yetiltiruvchi-usta (pishloqchi-usta) |
| 344. | 75130014 | Sut mahsulotlari defrostatchisi |
| 345. | 75130015 | Sut mahsulotlari ishlab chiqarish vaflichisi |
| 346. | 75130016 | Sut mahsulotlarini qabul qiluvchi |
| 347. | 75130017 | Sut shakarini ishlab chiqarish ustasi |
| 348. | 75130018 | Sut shakarini qurituvchi |
| 349. | 75130019 | Sut va qatiq mahsulotlarini tayyorlash ustasi |
| 350. | 75130020 | Sut va sut xomashyosini ajratuvchi |
| 351. | 75130021 | Tvorog massasini tayyorlovchi |
| 352. | 75130022 | Yog‘chi-usta |
| 353. | 75130023 | Yog‘sizlantirilgan quruq sut va sut o‘rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarishi ustasi |
| 354. | 75140001 | Blanshirlovchi |
| 355. | 75140002 | Burttaxlovchi |
| 356. | 75140003 | Konservalanadigan mahsulotni taxlovchi |
| 357. | 75140004 | Konservalash mahsulotlarini quyuvchi |
| 358. | 75140005 | Muz tayyorlovchi |
| 359. | 75140006 | Oziq-ovqat mahsulotlarini kesuvchi |
| 360. | 75140007 | Oziq-ovqat xomashyosi va materiallarini tayyorlovchi |
| 361. | 75140008 | Qiyom surtilgan mevalar tayyorlovchi |
| 362. | 75140009 | Qizilmiya ekstraktini pishiruvchi |
| 363. | 75140010 | Qizilmiyani qabul qiluvchi |
| 364. | 75140011 | Qizilmiyani saralab oluvchi |
| 365. | 75140012 | Qovuruvchi |
| 366. | 75140013 | Rafinad bo‘laklarini ajratuvchi |

| | | |
|---|---|---|
| 367. | 75140014 | Sabzavotni tuzlovchi |
| 368. | 75150001 | Choyni fermentlovchi |
| 369. | 75150002 | Degorjyor |
| 370. | 75150003 | Kupajchi |
| 371. | 75150004 | Nazoratchi -tortuvchi |
| 372. | 75150005 | Oziq-ovqat mahsulotlari chiqarishda xillovchi |
| 373. | 75150006 | Oziq-ovqat mahsulotlari nazoratchisi |
| 374. | 75150007 | Oziq-ovqat mahsulotlarini qabul qiluvchi-topshiruvchi |
| 375. | 75150008 | Remyuyer |
| 376. | 75150009 | Saturatorchi |
| 377. | 75150010 | Titester |
| 378. | 75150011 | Zig'ir xomashyosini xillovchi |

## 5. Yangi ishlab chiqilishi rejalashtirilgan kasbiy standartlar haqida ma'lumot

| T/r | Kasbiy standartlar soni | Qamrab olinadigan kasb (lavozim)lar soni | Ishlab chiqiladigan vaqti |
|---|---|---|---|
| 1 | 10 | 47 | 2025-yil, dekabr |
| 2 | 15 | 53 | 2026-yil, dekabr |

## 6. Tarmoq malaka ramkasi malaka darajalarining tavsifi

| Malaka darajasi | | Bilim | Ko'nikma (mahorat) | Mas'uliyat va mustaqillik | Kasbiy faoliyat turlari va kasb (lavozim)lar kodi hamda nomi |
|---|---|---|---|---|---|
| Milliy malaka ramkasi (MMR) | Tarmoq malaka ramkasi (TMR) | | | | |
| 1 | 1 | Qishloq xo'jaligi va veterinariya sohasida elementar va boshlang'ich umumiy bilimlar;<br>Ekin parvarishi va hayvonlarni boqishning asosiy qoidalari, oddiy gigiyena va xavfsizlik talablari | Belgilangan qoidalarga muvofiq standart va oddiy vazifalarni bajarish;<br>Dalada sug'orish, o't o'rish va hayvonlarga oddiy parvarish qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar | O'z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik;<br>O'zganing bevosita nazorati va kuzatuvi ostida ishlash | **01.63 Mavsumiy ekinlar yetishtirish**<br>61110021 Terimchi (paxtakor)<br>61140003 Dehqon xo'jaligi a'zosi<br>**01.61 Qishloq xo'jalik ekinlari yetishtirish sohasidagi yordamchi faoliyat turlari**<br>61140005 O'simliklar karantini va himoyasi bo'yicha ishchi<br>**10.91 Fermalarda boqiladigan hayvonlar uchun tayyor ozuqa ishlab chiqarish**<br>61211002 Ozuqa tayyorlash va qayta ishlash bo'yicha malakasiz ishchi<br>61290005 Hayvonlarga qarovchi ishchi<br>**03.12 Chuchuk suvlarda baliq ovlash**<br>62220002 Ichki suv havzalarida baliqchi<br>62220003 Qirg'oqoldi ov qiluvchi baliqchi |
| 2 | 2 | Quyidagilar bo'yicha o'quv yoki kasbiy faoliyat sohasi bo'yicha umumiy amaliy bilimlar:<br>- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayonlariga oid boshlang'ich nazariy va amaliy bilimlar texnik xavfsizligi qoidalari bo'yicha bilimlar; | Standart vazifalarni oddiy qoidalar va instrumentlar yordamida bajarish va yo'riqnoma bo'yicha harakat qilish uchun zarur bo'lgan amaliy va kognitiv ko'nikmalar:<br>- texnik vositalar va qurilmalarni ekspluatatsiya qilish va ta'mirlash; | Faqat yaxshi o'rgatilgan ish sharoitidagi o'z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik;<br>Mavjud algoritm va yo'l-yo'riqlarga muvofiq nazorat ostida standart va oddiy vazifalarni bajarish, belgilangan kasbiy vazifalarini | **01.30 Ko'chatxona mahsulotlari ishlab chiqarish**<br>61110008 Issiqxona ishchisi<br>**01.21 Uzum yetishtirish**<br>61120007 Uzum yetishtiruvchi<br>**01.63 Mavsumiy ekinlar yetishtirish**<br>61131001 Bog'bon<br>**01.30 Ko'chatxona mahsulotlari ishlab chiqarish**<br>61132003 Ko'chat yetishtiruvchi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
